

MAQSUD SHAYXZODA IJODINING YOSHLAR TARBIYASIDAGI O'RNI

N.A.Rajabova

Toshkent davlat transport universiteti

Annotatsiya: O'zbek eli orasida o'zining xizmatlari, yurtga sadoqati bilan tanilgan Maqsud Shayxzoda buyuk qalb egasi. Unga panoq bo'lib, bag'riga olgan yurtga sadoqati, tiriklik, yashashning, ona zamin tuprog'ida turib nafas olishning o'zi baxt ekani, umrning qimmatliligi, insonning o'tkinchi bir zarraligini samimiy misralarda, go'zal satrlarda muhrlab qoldirdi. Ushbu maqola shu xususida.

Kalit so'z: Serqirra ijodkor, ilmi daryo alloma, qomusiy bilim sohibi, donishmand inson.

Xalqimizning kelajagi, eng avvalo, uning ma'naviy qudrati va milliy ongining ijodiy kuchiga bog'liq. Shu bois, o'z tarixini, ma'naviyatini, ruhiy-madaniy qadriyatlarini anglashga yangicha yondashish jarayoni yaqqol sezilayotgan ayni kunlarda buyuk o'zbek adabiyoti mutafakkirlarining ijodiy merosini o'rganishga katta e'tibor qaratildi.

Yurtimizda yosh avlodning madaniy-ma'rifiy saviyasini yuksaltirish maqsadida atoqli yozuvchi va shoirlarning tarixiy xotirasini abadiylashtirish maqsad qilib olinganligi ham bejiz emas. Davlatimiz rahbarining "adabiyot — xalqning yuragi va ma'naviyati" degan ta'kidida xalqimiz ma'naviy kamolotining asosini ta'minlovchi yozuvchi va shoirlarimiz muhim o'rin tutadi.

Maqsud Shayxzoda olti asrdan ziyodroq tarixga ega o'zbek-ozarbayjon adabiy aloqalarida yangi bir davrni boshlab berdi va uni mustahkamlashga ulkan hissa qo'shdi.

Maqsud Shayxzoda siymosi nafaqat xalqlar do'stligining ramzi, balki turkiy xalqlarning, millatlarimizning azaliy tarixi, madaniyati, ma'naviyati, taqdiri, aytish

mumkinki, yuragi abadul-abad tutashib, birlashib ketganligining timsolidir. Maqsud Shayxzoda o'zbek xalqining atoqli shoiri, barkamol dramaturgi, ustoz muallimi, etuk olimi, otashnafas publitsisti, mohir tarjimoni, yoshlarga mehribon, izlanuvchan uslubchi pedagogi sifatida faoliyat yuritib, o'z davridayoq xalqimiz xotirasiga muhrlandi.

Uning qator she'riy to'plamlari, dramatik asarlari, salmoqli tadqiqotlari, xolisona va izlanuvchan pedagogik faoliyati, ko'plab iqtidorli shogirdlarni kamolga etkazishdagi sa'y-harakatlari, faol publitsistik chiqishlari, go'zal tarjimalari buning yorqin isbotidir. Maqsud Shayxzoda qardosh ozarbayjon naslidan bo'lib, ham o'zbek xalqining tarixini, an'ana va udumlarini, allomalarini yaxshi bilgan. O'zbek xalqining sadoqatli farzandi sifatida faoliyat ko'rsatdi.

Shayxzodaning yuksak did bilan amalga oshirilgan tarjimalari hech qachon o'z qimmatini yo'qotmaydi. Uning Pushkinning "Mis chavandoz", "Kavkaz asiri", Mayakovskiyning "Juda soz" poemalari va she'rlarini, ozarbayjon shoirlar asarlarini, Shekspirning "Rameo va Juletta", "Xamlet" tragediyalarini va ko'plab asarlarni mohirona o'zbek tiliga va qardosh xalk tillariga tarjima qilgan adibdur. U qardosh xalqlar va jahon adabiyoti klassikasining mahorat maktabidan ta'lim oldi. Ilg'or an'analarni o'zida mujassamlashtirgan serqirra allomadir.

Shayxzoda dastlabki ijodini nazmda boshlab, ilk she'riy to'plami—«Loyiq soqchi» bo'lib, shundan keyin she'riyat olamida «O'n she'r» «Undoshlarim» «Uchinchi kitob» «Jumhuriyat» «O'n ikki», «Yangi devon», «Saylov qo'shiklari», «Kurash nechun?», «Jang va qo'shiq», «Ko'ngil deydi...», «O'n besh yilning daftari», «Yurt she'rlari», «Zamon torlari», «Olqishlarim», «Yillar va yo'llar», «She'rlar» va boshqa nazmiy asarlari nashr etilgan. Shayxzodaning dastlabki ijodida va qisman ikkinchi jahon urushi yillardan keyingi ayrim she'rlarida ozarbayjon she'riyatiga xos ohanglar, minbar she'riyat belgilari ustuvorlik qilgan.

Ammo, adib o'zbek mumtoz va zamonaviy she'riyatining til xususiyatlari va uslubini chuqur anglay borgani sayin uning she'rlarida o'zbekona ohang, musiqiy ravonlik kuchaya borganini ko'ramiz.

Maqsud Shayxzoda ro'y berayotgan voqelikka faol munosabatda bo'lishga

intilib, xalq va mamlakat hayotida ro'y bergan muhim voqealarni tasvirlashga, mehnat va kurash qahramonlari obrazini yaratishga alohida e'tibor berdi. Ayni shu maqsadda doston janriga qo'l urib, «O'rtoq mulk», «Chirog'», «O'rtoq», «Meros», «Tuproq va haq», «Ovchi qissasi», «Iskandar Zulqarnayn», «O'n birlar», «Jenya», «Oqsoqol», «Axmadjonning hikmatlari», «Uchinchi o'g'il», «Nurmat otaning tushi» singari liro-epik asarlar yaratib o'zbek adabiyotining turli janrlaridagi asarlari bilan boyitib boradi. Ta'lim tizimida yoshlarni axloqiy tarbiyalashdan asosiy maqsad ta'lim-tarbiya jarayoni orqali tarbiyalash, umuminsoniy qadriyatlarni jonlantirishdir.

Ma'naviy shaxs - faol hayotiy pozitsiyani egallagan, aqliy rivojlangan, Vatan manfaati uchun ishlashni biladigan, sog'lom turmush tarzini olib boradigan, axloqiy jihatdan yaxshi, estetik jihatdan ma'rifatli va murakkab zamonaviy dunyoni harakatlantira oladigan shaxs. Maqsud Shayxzodaning vatanparvarlik tarbiyasi mavzusiga "Jaloliddin Manguberdi" dramatik asarida ham to'xtalib, unda ajdodlarimizning mo'g'ul istilochilariga qarshi fidokorona kurashlari batafsil bayon etilgan.

Uning 1964-yilda yozilgan Mirzo Ulug'bek dramasi, Abu Rayhon Beruniy haqidagi tarixiy asari ham ona Vatanga muhabbat ruhida yozilgan. Ma'naviyatli inson yuksak insoniy tuyg'ularini isrof qilmaydi. Yoshlarning ma'naviy rivojlanishi va ularni mustaqil hayotga tayyorlash jamiyat va davlat taraqqiyotining muhim tarkibiy qismidir. Ulug'bekning odil, ilm-ma'rifatni yuksak darajada ardoqlagan inson sifatida gavdalantiradi. Shayxzoda qalami orqali olimning samolar sirini ochgan xizmatlari va fojeaviy qismati millionlab odamlar qalbiga borib etdi. Mana shunday asar o'quvchini kitob sahifalarga mixlab qo'yadi, kitobxon qalbiga ezgulikni, hayotga muhabbatni tarbiyalaydi. Asarning bu darajada sevilishi va iliq kutib olinishi dramaturg sifatida Maqsud Shayxzodaning ulkan ijodiy tantanasi edi.

Ijodkor tarixiy mavzuda qalam tebratar ekan, bugungi kun uchun ham dolzab ahamiyatga, ma'naviy va falsafiy qimmatga ega asarlar yaratishi lozimdir. Har ikki asarni o'qir ekanmiz, donishmand Ulug'bekning ilm-fan uchun fidoiyligi jasorat va

avlodlar uchun bebaho xazina ekanligiga yana bir bor guvoh bo'lamiz.

“ Vasiyatim, vasiyatim! Kim ham eshitgay,
Mulzim yo'qki, birovlariga meros qoldirsam,
Xazinam yo'q birovni boyitib qo'ysam.
Merosimdir kitoblarim va jadvallarim.
Bir meroski, zamon uni mahv etolmaydi.
Bir meroski, bahra topar undan er yuzi...

Ulug'bekning vasiyati – Shayxzodaning vasiyati. Shayxzoda bizga zamon mahv etolmaydigan meros qoldirdi” [Yoqubov O. 1990: 4] –deganda, yozuvchimiz to'la haqli edi.

Badiiy adabiyotning bosh vazifasi inson qalbida ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat tuyg'ularini uyg'otishdir. Maqsud Shayxzodaning she'riy asarlari va tragediyasi o'zbek adabiyotini boyitish bilan birga xalq madaniy-ma'naviy dunyoqarashining o'sishida ham katta ahamiyatga ega bo'lgan. Shu bois uning ijodi yaqin ellik yil ichida qayta-qayta o'rganilmoqda. Asarlari maktab darsliklaridan tushmay kelmoqda. Bularning barchasi shoir ijodiga bo'lgan ma'naviy ehtiyoj natijasida, albatta. Shunday ekan, shoir ijodini o'rganish va keng targ'ib qilish bugungi kunda ham dolzarb ahamiyatga ega.

Maqsud Shayxzodaning qardosh xalqlar va xorijiy tillarga ham tarjima qilingan. Shoirning adabiyot sohasidagi xizmatlari taqdirlangan. Bir kam olmish yil umr ko'rsa-da mangulikka daxldor asarlari, boy merosi bilan xalq qalbidan joy olgani aniq. Darhaqiqat, adabiyot, ta'bir joiz bo'lsa, insonning ma'naviy-ruhiy olamini, millat hayotini o'zida badiiy aks ettiradigan oyna. Bu oynada nainki muayyan millatning, umuman inson zotining latofatiyu qabohati, fazilatlaruyu nuqsonlari bor murakkabligi bilan namoyon bo'ladi.

Agar boshqa ilmlar odamning aqlu tafakkurini charxlasa, adabiyot aqlu tafakkurni o'tkirlashtirish barobarida tuyg'uni ham tarbiyalaydi. O'ylaymizki, Shayxzoda ijodi yoshlarimizni buyuk qalb egasi qilib tarbiyalashda bir ibrat maktabi bo'la oladi.

ADABIYOTLAR

1. Naim Karimov, Maqsud Shayxzoda: Ma'rifiy-biografik roman. T.: Sharq", 2009.
2. M. Shayxzoda. Chorak asr devoni: Tanlangan asarlar/ M. Shayxzoda. - Toshkent: O'zbekiston davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1958.
3. M. Shayxzoda. Zamondoshlarim xotirasida/ M. Shayxzoda. - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1983.
4. M. Shayxzoda. Asarlar olti tomlik / M. Shayxzoda T.4. G'azal mulking sultoni: Alisher Navoiy xaqidagi tadqiqot va maqolalar majmuasi - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1972.